



# JOURNAL OF LAW AND HISTORICAL RESEARCH

## HUQUQ VA TARIX TADQIQOTLARI JURNALI

### QABUL YO'NALISHLARI:

- Ijtimoiy va tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi
- Tarixiy manbalar va tarixiy metodologiya
- Fuqarolik jamiyati va inson huquqlari
- Fuqarolik huquqi va uning zamonaviy muammolari
- Jinoyat huquqi va adliya tizimi tadqiqotlari
- Xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar

INNOPUBLICATION.COM





**HUQUQ VA TARIX TADQIQOTLARI JURNALI** - ilmiy-uslubiy jurnali  
**VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

Ushbu to'plamda “**HUQUQ VA TARIX TADQIQOTLARI JURNALI**” ilmiy-uslubiy jurnalining 2026-yil 5-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

**Bosh muharrir:** JUMAYEVA SANOBAR ABSAATOVNA-Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrasida dotsenti, Phd

**Jurnal quyidagi sohalarda maqolalar qabul qiladi:** ijtimoiy va tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi, tarixiy manbalar va tarixiy metodologiya, fuqarolik jamiyati va inson huquqlari, fuqarolik huquqi va uning zamonaviy muammolari, jinoyat huquqi va adliya tizimi tadqiqotlari, xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, Google Scholar, Zenodo, Open Aire, Sindex xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollej o'quvchilari, maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

*Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar*

**“INNOVATIVE PUBLICATION” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI**





## THE HISTORY OF QUVA IN HISTORICAL SOURCES AND ARCHAEOLOGICAL RESEARCH

**Shaxribonu Yo'ldashboyeva**

2nd-year Student, History of the Peoples of Central Asia Program

E-mail: [yoldoshboyevashahribonu@gmail.com](mailto:yoldoshboyevashahribonu@gmail.com) Tel: +998931353106

**Scientific Supervisor: Turdixo'jayeva Mahliyo**

PhD in Historical Sciences

***Annotation:** This article examines the history, monuments, and rich cultural heritage of the city of Quva, one of the most ancient cities in the Fergana region. It analyzes archaeological research conducted in the area, including findings that reveal the structure of Quva, its shahristan parts, and the Buddhist temple. The article also provides information on how the history of the city is reflected in historical sources. In addition, it discusses the ancient names of Quva and how it has been recognized and studied by various scholars.*

***Keywords:** Fergana Valley, Quva, Qubo, Qubod, Buddhist temple, V.A. Bulatova, V.D. Zhukov, Chinese sources, "History of Fergana", shahristan.*

### QUVA SHAHRI TARIXIY MANBALAR VA ARXEOLGIK TADQIQOTLARDA.

**Shaxribonu Yo'ldashboyeva**

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [yoldoshboyevashahribonu@gmail.com](mailto:yoldoshboyevashahribonu@gmail.com) Tel: +998931353106

**Ilmiy rahbar:** t.f.f.d. (PhD) Turdixo'jayeva Mahliyo

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona hududidagi eng qadimgi shaharlarda biri bo'lgan Quva shahrining tarixini, yodgorliklarini va boy madaniyatini o'rganish uchun olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va tadqiqotlar natijasida topilgan Quva shahrining tuzilishi, uning shahriston qismlari, buddaviylik ibodatxonasi shaharning tarixi, tarixiy manbalarda qanday yoritilgani haqida ma'lumot beriladi. Bundan*



*tashqari Quva shahrining qadimda qanday nomlar bilan atalganligi, qaysi olimlar tomonidan Quva shahri qandan e'tirof etilganligi haqida ma'lumot beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Farg'ona vodiysi, Quva, Qubo, Qubod, buddaviylik ibodatxonasi, V.A. Bulatova, V. D. Jukov, xitoy manbalari, "Tarixi Farg'ona asari", shahriston.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются история, памятники и богатое культурное наследие города Кува - одного из древнейших городов Ферганского региона. Анализируются результаты археологических исследований, в ходе которых были выявлены структура города, его шахристан, а также буддийский храм. Также освещается, как история Кувы отражена в исторических источниках. Кроме того, приводятся сведения о древних названиях города и о том, какими учёными он был изучен и признан.*

**Ключевые слова:** *Ферганская долина, Кува, Кубо, Кубод, буддийский храм, В.А. Булатова, В.Д. Жуков, китайские источники, «История Ферганы», шахристан.*

Farg'ona vodiysi - Markaziy Osiyoning eng qadimgi dehqonchilik manzilgohlaridan biri bo'lgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida doimo muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlardan edi. Farg'ona hududida ko'plab qadimiy shaharlar mavjud. Farg'ona vodiysida 70 dan ziyod shaharlar mavjud bo'lgan. Qadimgi an'analarga ko'ra shahar bo'lishi uchun aholi 32 hunar bilan shug'ullansa shahar deb hisoblangan. Shular jumlasidan Quva shahri ham Farg'ona hududidagi tarixiy shaharlardan biridir. Shu nuqtai nazardan Quva shahrini tarixiy va etnografik jihatdan o'rganishni taqazo qilgan. Quva shahri xarobasini 1956-yildan O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti tomonidan Quva shahrining shahriston qismi va uning atrofidagi hududlarni tadqiq qilishni boshlashgan(1-jadvalga qarang). Ushbu tadqiqot ishlarga Yahyo G'ulomov rahbarlik qiladi va bu jamoa tarkibida X. M. Muhammedov, V. A. Bulatova, M. Aminova, V. D. Jukov kabi yirik olimlar ishtirok etishadi. 1956-yilda arxeolog V. D. Jukov Quva shahri



xarobasini tadqiq etadi va arxeologik obidalarning xaritasini tuzib chiqadi<sup>1</sup>. (*1-Ilovaga qarang*) Bundan tashqari Quva shahrining o'rganishda yodgorlikda olib borilgan qazishma ishlarida V. A. Bulatova tomonidan topilgan budda ibodatxonasi bo'lgan<sup>2</sup>.

Quva shahri Farg'onaning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Qadimda bu shahar "Qubod", "Qubo" nomi bilan atalgan va keyinchalik Quva nomini olgan. Quva shahri qadimdan *Farg'ona vodiysining markazi* bo'lib kelgan. Bunga asosiy sabab esa bu hududning geografik jihatdan qulayligi va iqlimining yaxshiligi, suvning ko'pligi, karvon yo'llariga yaqinligi ham bo'lgan. Bu sabablar Quva shahrida dehqonchilik, hunarmanchilik va savdoning rivojlanishiga sharoit yaratib bergan. Quva shahri Farg'ona hududini Qashg'ar bilan bog'lovchi qadimgi savdo yo'li ustida joylashgan edi. Bu esa Quva shahrida madaniyatni gullab-yashnashiga xizmat qilgan.

Quva shahri o'rta asrlarda arablar kirib kelib, arab bosqinchilari tomonidan "Kubo" deb atalgan va bu turkchadagi "tepa" bilan bir xil bo'lgan. O'rta asrlarda Quva shahrining uchta qismdan iborat bo'lib, jami maydoni 100-120 gektar atrofida bo'lgan va buning 12 gektar qismi Quvaning shahriston qismiga to'g'ri kelgan. Hozirda shahriston va ark qismlari saqlanib qolgan. Bundan tashqari Quva shahrida budda ibodatxonasi ham bo'lgan. Ushbu ibodatxona Quva yodgorligidagi arxeologik qazishmalar davomida V. A. Bulatova tomonidan topib o'rganilgan. Ushbu budda ibodatxonasi VIII asrda arablar kelgan vaqtda Qutayba ibn Muslimning buyrug'i bilan arablar tomonidan vayron qilinganligi aniqlangan. Tadqiqotlar davomida ko'plab haykallarning bo'lak qismlari, uy xo'jalik buyumlari va buddaning boshi ham topiladi (*1-jadvalga qarang: 2-rasm*). Ahamiyatli jidati budda boshining peshonasiga uchinchi ko'z ishlangan bo'lgan va topilgan vaqtda haykalning burni shikast ko'rgan. Uy-xo'jalik buyumlari esa qora, qizil va jigarrang ranglarda bo'lib, angob<sup>3</sup> bilan

<sup>1</sup> Жуков В.Д. Обследование городища старая Кува в 1956 год. КСИА. Вып 80. М.: 1960. - 80с.

<sup>2</sup> Булатова В.А. Древняя Кува. - Т; Фан, 1972. - 115с.

<sup>3</sup> Angob – kulolchilikda keng qo'llaniladigan, qizil kesakdan tayyorlangan bo'yoq.



qoplangan biroq, jilolanmagan yupqa qatlamli bo'lgan. Quva shahrida hunarmandchilik sohasi rivojlangan sohalardan biri bo'lgan. Xususan temirchilik va shishasozlik judayam taraqqiy etgan sohalardan bo'lgan. Quva shahrida shishalar juda ham arzon bo'lgan. Shu sababli shishadan turli uy xo'jaligi buyumlari, xususan, vazalar, chiroyli idishlar ham yasalgan (*1-jadvalga qarang: 3-rasm*). Shishadan yasalgan ushbu buyumlar hattoki Xitoyda ham mashhur bo'lgan.

Quva shahrining ilk o'rta asrlarda muhim va mashhur shahar bo'lishiga sabablardan yana biri bu uning zarbxonasining mavjud bo'lganligidir. Aynan ilk o'rta asrlar Quva shahri tangalarni zarb qilgan hududlardan biri bo'lgan. 1950-yillardagi tadqiqotlar natijasida X asrga oid bo'lgan 14 ta tanga topilgan va ushbu tangalar bronzadan zarb qilingan. Ushbu topilgan tangalar yumaloq shaklda bo'lib, ularning diametri 2,7 va 2,9 sm bo'lgan va tangalarning markaz qismida 0,8 sm dan iborat teshigi bor. Ilk o'rta asrlarda yashagan ko'plab olimlar tomonidan Quva shahriga tavsiflar berilgan. Xususan, ilk o'rta asrlarda yashagan mashhur olim Ishtaxriy o'zining "Kitob ul-masolik va al-mamolik" nomli kitobida Quva shahriga quyidagicha ta'rif bergan: *"Qubo kattaligi jihatidan Axsikentga teng. Butun viloyatning eng chiroyli joyi shu yer. Bu yerda ko'xandiz, shahriston va rabod bor. Ko'xandiz buzilib ketgan. Jome masjidi ko'xandizda, bozor, amirlar saroyi, zindon rabodda joylashgan. Rabod devor bilan o'rab olingan, u yerda bog'u bo'stonlar bor, oqar suvlari mo'ldir<sup>4</sup>".*

Quva shahri ilk o'rta asrlarga kelib Farg'onaning eng obod shaharlaridan biriga aylangan. "Hudud ul-olam" asarida Quva shahriga quyidagicha ta'rif berilgan: "Qubo - katta shahar, bu Farg'ona nohiyatidagi eng obod shahar erur<sup>5</sup>". Bu kabi ta'riflar Quva shahrining Farg'onadagi naqadar go'zal va obod shaharlardan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Quva shahri haqidagi ma'lumotlarni mashhur tarixchi, tarjimon olim Is'hoqxon To'ra Ibratdan olishimiz mumkin. Ibratning "Tarixi Farg'ona" nomli kitobi Farg'ona haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shu jumladan, Quva shahri tarixi bo'yicha ham.

<sup>4</sup>. Истахрий. Китоб Ул-Масолик Ал-Мамолик. – Т; Фан; 2019. - С174

<sup>5</sup> Худуд Ул-Олам. – Т; О'zbekiston, 2008.- С16




Ibrat o'zining asarida Quva shahrini Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi shahar deb ko'rsatadi va shaharga quyidagicha ta'rif beradi: *"Farg'ona bino bo'lmasdan bino bo'lgan shahar Qubo edi"*<sup>6</sup>.

Bundan tashqari Quva shahri Farg'onaning poytaxtiyam bo'lganligini aytadi: "Quboni Qubod (No'shiravonning otasi) o'zi bino qilgan ekan. Farg'onaning poytaxti ul vaqtda *"Qubo"* ekan. va ba'zi vaqtlarda Axsikent poytaxt bo'lgan ekan"<sup>7</sup>". Ibrat tomonidan qayd qilib qoldirilgan bu kabi qimmatli ma'lumotlar nafaqat Quva shahri, balki butun Farg'ona tarixi uchun muhim va qimmatli manba vazifasini o'taydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qilganda, Quva shahri Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi shaharlardan biri bo'lgan. Quva shahri nafaqat tarixni balki, qadimiy madaniyatni ham o'z ichiga olgan. Buning dalili sifatida Quva shahridan topilgan buddaviylik diniga oid asori-antiqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Arablar kirib kelgan davrdan esa albatta, islom dini va madaniyati ham kirib kelgan. Quva shahrining mana shunday tarixiy davrlardan o'tib kelishi uni yanada vatanimiz tarixida qiymati va qimmatini oshiradi.

### **Ilovalar:**






### **1-ilova (Quvaning shahrison va rabot qismlari xaritasi.)**

<sup>6</sup> Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Т; Маънавият; 2005 – С277

<sup>7</sup> Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Т; Маънавият; 2005 – С278.

**1-jadval**

N	Rasm	Quva shahriga oid rasmlar
1		Quva shahrining arxeologik ekspeditsiyalar natijasida topilgan qoldiq qismi ( <a href="https://telegra.ph/file/7930d5f509f7fa4e4e8f6.jpg">https://telegra.ph/file/7930d5f509f7fa4e4e8f6.jpg</a> )
2		Quva shahridagi ibodatxonadan topilgan haykal parchalari ( <a href="https://telegra.ph/file/281be8f6297eb65ea2bd5.jpg">https://telegra.ph/file/281be8f6297eb65ea2bd5.jpg</a> )
3		Quva shahridan topilgan shishadan yasalgan buyumlar ( <a href="https://telegra.ph/file/558387ae10b9583c50694.jpg">https://telegra.ph/file/558387ae10b9583c50694.jpg</a> )

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Булатова В.А. Буддийский храм в Куве // СА. 1961. № 3. – С. 241–250.
2. Булатова В.А. Древняя Кува. – Т.: Фан, 1972. – 115 с.
3. Жуков В.Д. Обследование городища Старая Кува в 1956 год // КСИА. Вып. 80. – М., 1960. – 80 с.
4. Исхоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Т.: Маънавият, 2005. – 300 с.
5. Истахрий. Китоб ул-Масолик ал-Мамолик. – Т.: Фан, 2019. – 478 с.
6. Худуд ул-Олам. – Т.: O‘zbekiston, 2008. – 63 с.
7. Хо‘jayев А. Farg‘ona tarixiga oid ma’lumotlar. – Farg‘ona: Farg‘ona, 2013. – 288 б.



## THE ROLE OF MUSEUM EXHIBITS IN COVERING THE HISTORY OF THE CITY OF SHAHRISABZ

(ON THE EXAMPLE OF THE TEACHING MUSEUM OF THE DEPARTMENT  
OF ARCHAEOLOGY, FACULTY OF HISTORY, NATIONAL UNIVERSITY OF  
UZBEKISTAN)

**Eshonqulov Dilshodbek Muxtorjon o'g'li**

1st-year Master's Student National University of Uzbekistan named after Mirzo  
Ulugbek

**Scientific Supervisor: D. R. Normurodov**

PhD in Historical Sciences

### ANNOTATION

This article is devoted to the decoration of glazed and unglazed architectural ornaments found during the study of the Shahrisabz (Kesh) region of the KATE, which is stored in the study room of the Department of "Archaeology and Ethnology" of the Faculty of History of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, and their significance in further developing knowledge and skills about the history of architecture and art of this region is highlighted. The article notes the incomparable role of architectural structures of the era of Amir Temur and the Timurids, including their facing ornaments, in the museumization of ancient historical and architectural monuments and finds located in Shahrisabz, thereby increasing the tourism potential of the region.

**Keywords:** Kesh, museum, KATE, majolica, exhibit, exposition, Southern Sughd, mausoleum, Islamic decoration, Nasaf.

**KESH – SHAHRISABZNING AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI  
ME'MORIY BEZAKLARI XUSUSIDA (O'ZMU TARIX FAKULTETI  
"ARXELOGIYA VA ETNOLOGIYA" KAFEDRASI QOSHIDAGI O'QUV  
XONASI ASHYOLARI MISOLIDA)**

Eshonqulov Dilshodbek Muxtorjon o'g'li



Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: T. f. f.d.(Phd) D. R. Normurodov

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrasida qoshidagi o‘quv xonasida saqlanayotgan KATEning Shahrisabz (Kesh) hududini o‘rganish davomida topilgan sirlangan va sirlanmagan me‘moriy bezaklarning bezatilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning ushbu hudud me‘morchiligi va san‘ati tarixi haqidagi bilim hamda ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada Shahrisabzda joylashgan qadimgi tarixiy-me‘moriy yodgorliklar va topilmalarni muzeylashtirish, shu orqali o‘lkaning turizm salohiyatini oshirib berishda Amir Temur va temuriylar davri me‘moriy inshootlarining, jumladan ulardagi qoplama bezaklarning o‘rni beqiyosligi qayd qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Kesh, muzey, KATE, mayolika, eksponat, ekspozitsiya, Janubiy Sug‘d, maqbara, islmiy bezak, Nasaf.

### ОБ АРХИТЕКТУРНЫХ УКРАШЕНИЯХ КУШ-ШАХРИСАБЗА ЭПОХИ АМИРА ТЕМУРА И ТИМИРУДОВ

(На примере учебных материалов «Археология и этнология» исторического факультета Национального университета Узбекистана.)

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена декору глазурированных и неглазурированных архитектурных орнаментов, найденных в ходе исследования Шахрисабзского (Кешского) региона КАТЕ, хранящихся в читальном зале кафедры «Археологии и этнологии» исторического факультета Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, и их значению для дальнейшего развития знаний и навыков в области истории архитектуры и искусства этого региона. В статье отмечается несравненная роль архитектурных сооружений эпохи Амира Тимура



и Тимуридов, включая их облицовочные орнаменты, в музейном деле древних историко-архитектурных памятников и находок, расположенных в Шахрисабзе, тем самым повышая туристический потенциал региона.

**Ключевые слова:** Кеш, музей, КАТЕ, майолика, экспонат, экспозиция, Южный Согд, мавзолей, ислимское украшение, Насаф.

Markaziy Osiyoning qadimiy tarixiy-geografik hududlaridan biri hisoblangan Qashqadaryo vohasi (Janubiy Sug‘d) boy tarixi bilan tadqiqotchilarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Arxeologik va me‘moriy yodgorliklar, xalq hunarmandchilik markazlariga ega bu vohaning qadimiy tarixi ham muhim voqealarga boy. O‘tgan asrning boshlaridan hozirgacha hududda mavjud bo‘lgan arxeologik yodgorliklar hamda tarixiy-me‘moriy obidalarni o‘rganish uchun bir qancha ekspeditsiya va tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, 1925-yildan boshlab o‘lkaga V.V.Bartold, V.A.Vyatkin, B.Denike, san‘atshunos E.Kon-Viner kabi tadqiqotchilar tashrif buyuradilar<sup>1</sup>. 1930-yillardan Ya.G‘.G‘ulomov, S.K.Kabanov, keyinchalik Moskva arxitektura instituti maxsus guruhi olib borgan tadqiqotlar natijasida Shahrisabzning barcha mahallalari aks ettirilgan tarh-rejasi (plani) to‘liq tiklandi<sup>2</sup>.

Ayniqsa, Shahrisabz shahri tarixini o‘rganishda ToshDU “O‘rta Osiyo arxeologiyasi (hozirgi O‘zMU “Arxeologiya va etnologiya)” da 1963-yilda tashkil qilingan “Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (KATE)” muhim ahamiyat kasb etadi. M.Ye. Masson, Z.I. Usmonova, A.S. Sagdullayev va kafedraning boshqa arxeologlari rahbarlik qilgan ushbu ekspeditsiya bugungi kunga qadar 600 dan ortiq turli tarixiy davrlarga oid bo‘lgan yodgorliklarni o‘rgandi. Xususan, ekspeditsiya a‘zolarining tadqiqot faoliyati Janubiy So‘g‘dning qadimiy shaharlari bo‘lgan – Uzunqir, Sangirtepa, Kitob, Shahrisabzlarni, shuningdek, dehqonchilik qishloqlari,

<sup>1</sup> Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке // Археология Средней Азии. № II. Труды САГУ. – Ташкент, 1953. - С. 18

<sup>2</sup> Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 12



savdo yo'llari, hunarmandchilik ustaxonalari, me'moriy yodgorliklar, mudofaa qo'rg'onlarining qadimgi davrdan 20-asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi<sup>3</sup>.

XXI asrda ayrim sabablarga ko'ra, O'zMU ning "Arxeologiya va etnologiya" kafedrasi a'zolari Kesh vohasining qadimgi va o'rta asrlar yodgorliklarida tadqiqot olib borishlari biroz cheklandi, Bu payda Samarqand Arxeologiya instituti tadqiqotchilari vohani tadqiq qilishga kirishdi. Hozirda Keshdagi bunday tadqiqotlar O'zMU "Arxeologiya va etnologiya" kafedrasi a'zolari tomonidan olib borish yana yo'lga qo'yilmoqda. Bu ishlar akademik A.Sagdullayev rahbarligidagi "Janubiy O'zbekiston arxeologik merosini o'rganish va yodgorliklarni muzeylashtirish masalalari" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida amalga oshirilmoqda<sup>4</sup>.

Keshda olib borilgan ekspeditsiyalar natijasida topilgan ashyolar bugungi kunda yurtimiz va chet davlatlardagi bir qancha muzeylarda saqlab kelinmoqda. KATE a'zolari tomonidan topilgan va aholidan yig'ib olingan o'yma me'moriy naqsh va mayolikalarining ayrim na'munalari bugungi kunda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti "Arxeologiya va etnologiya" kafedrasi qoshidagi o'quv xonasi (muzeyi)da saqlanib kelinmoqda. Temuriy davri me'morchiligida qo'llanilgan me'moriy bezaklarning yorqin namunasi hisoblangan ushbu mayolikalar Shahrisabz shahrini o'rganish davomida uning yaqinida joylashgan maqbara o'rnidan topiglan. Ko'p xollarda shahar yoki qal'a devorlarini tashqi qismini bezashda qo'llanilgan ushbu mayolikalarda Amir Temur va Temuriylar davri va undan keyingi davrlarda Movorounnahr, xususan, Buxoro, Samarqand, Nasaf va boshqa hududlardagi me'morchilikda ustunlik qilgan islamiy – o'simliksimon bezaklar orqali bezash usulidan ushbu maqbarada ham foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin<sup>5</sup>. Bunga esa Shahrisabzdan topilgan ushbu mayolikalarda tasvirlangan chirmashib ketgan

<sup>3</sup> Komilov F.Z. Sovet davrida Qashqadaryo vohasining arxeologik o'rganilish tarixi // Journal of Education, Ethics and Value №2 – Toshkent, 2025. – b. 22.

<sup>4</sup> Komilov F.Z. Sovet davrida Qashqadaryo vohasining arxeologik o'rganilish tarixi // Journal of Education, Ethics and Value №2 – Toshkent, 2025. – b.22

<sup>5</sup> Г.А. Пугаченкова, Л.И. Ремпель. Очерки искусства Средней Азии. – Москва: Искусство, 1982.- С.29



novdalar, barglar, gullar hamda boshqa mayda va sodda tasvirlangan o‘simliklar shakllarini misol qilib keltirish mumkin (1-rasm).

Amir Temur va Temuriylar davri me‘morchiligida ko‘zga tashlanadigan yana bir narsa, bu binolarni bezashda islomiy naqshlarda eng keng qo‘llaniladigan osmon va poklik ramzi hisoblangan firuza (ko‘k-yashil) ranglardan foydalanishdir. O‘zMU Tarix fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrasida qoshidagi o‘quv xonasida saqlanayotgan mayolika va o‘yma bezaklarda ham buni ko‘rish mumkin (1-2-rasm).

O‘zMU Tarix fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrasida qoshidagi o‘quv xonasida saqlanayotgan XIV asrga oid mayolikalaridagi diqqatni tortadigan yana bir xususiyat shundaki, ushbu parchalarda bezak uchun arab yozuviga o‘xshash belgilar (Quron oyatlari yoki bezak sifatida ishlatilgan Kufiy yozuvi) islomiy bezaklar bilan mukammal tarzda uyg‘unlashgan xolda o‘zgacha joziba baxsh etib turadi. Bu esa Amir Temur va temuriylar davrida me‘morchilik inshootlari va ularni bezash ishlari naqadar mahorat bilan bajarilganligining yana bir isbotidir.

Mayolikalarining ba‘zilari sirlanmagan ya‘ni, tabiiy loy ko‘rinishida bo‘lib, unda naqshlar takrorlanuvchi to‘g‘ri to‘rtburchak ichida joylashtirilgan. Bezaklarda mavjud bo‘lgan qalin va bo‘rtma chiziqlar ularning tashqi devor bezagi (friz) ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu parchada ham islom dinida mashhur bo‘lgan o‘simliksimon (islomiy) naqshlardan foydalanilgan bo‘lib, ularda egilgan novdalar, barg va boshqa sodda geometrik shakllarni ko‘rish mumkin (3-rasm). Naqshlarning bu kabi uyg‘unligi va takrorlanuvchi shakllar orqali abadiylik va tartib ifodalangan<sup>6</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida Tarix fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrasida qoshidagi o‘quv xonasi saqlanayotgan, Kesh hududidan topilgan XIV asrga oid o‘yma me‘moriy naqsh va mayolikalar talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishgina qolmay, Amir Temur

<sup>6</sup> Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Маъсул муҳаррир: А.С.Сағдуллаев. – Тошкент: Шарқ, 1998.- 6.18



va Temuriylar davrida Markaziy Osiyo, jumladan, Samarqand, Buxoro, Kesh, Nasaf hamda boshqa hududlarda me'morchilik, xususan, me'moriy bezash ishlari naqadar rivoj topganligi, binolarning bezashda ko'proq nimalarga e'tibor berilganligi, qaysi usul va ranglardan foydalanilganligi, qaysi turdagi shakllardan foydalanilganligi, ustahunarmandlarning naqadar mahoratli ekanligini anglab etishlariga xizmat qiladi. Shu o'rinda Shahrisabz (qadimgi Kesh) shahrining Amir Temur va Temuriylar davrida ham muhim ahamiyat kasb etganligini, boshqa yirik poytaxt shaharlarga xos uslubdagi me'moriy obidalarni bunyod ettirilganligidan bilishimiz mumkin. Janubiy Sug'dning markaziy shaharlaridan hisoblangan Kesh nafaqat Temuriylar davrida balki, undan keyingi davrlarda ham o'lkaning strategik va madaniy jihatdan yirik markazlaridan biri bo'libgina qolmay u bugungi kunda ham o'zining salobati va betakror naqshlari bilan millionlab insonlarni hayratga solib kelmoqda. Shahrisabzda joylashgan yirik me'moriy obidalar – Oqsaroy, Dor us -Siyodat va Dor ut-Tilovat majmualari, Ko'k gumbaz masjidi va boshqalarning nafaqat o'lka, balki butun dunyoning eng qimmatli ma'daniy meroslaridan ekanligi va ushbu me'rosni abadiylashtirish, bu orqali hududning o'lka turizmidagi salohiyatini oshirish uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar diqqatga sazovordir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке // Археология Средней Азии. № II. Труды САГУ. – Ташкент, 1953. - С. 18
2. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Маъсул муҳаррир: А.С.Сагдуллаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 12 – 18.
3. Komilov F.Z. Sovet davrida Qashqadaryo vohasining arxeologik o'rganilish tarixi // Journal of Education, Ethics and Value №2 – Toshkent, 2025. – b. 22.
4. Г.А. Пугаченкова, Л.И. Ремпель. Очерки искусства Средней Азии. – Москва: Искусство, 1982.- С.29



## ILOVALAR



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



## CONSTITUTIONAL LEGAL CULTURE — THE MAIN FACTOR OF THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

**Lutfullayeva Feruza Boboqulovna**

Law teacher at the M.S.Vosiqova Academic Lyceum under the Tashkent State  
University of Law, Independent Researcher

[Flutfullayeva578@gmail.com](mailto:Flutfullayeva578@gmail.com); +998998517855

**Annotation:** The article analyzes the modern interpretation of constitutional legal culture, its role in the development of society and its impact on the system of public administration based on theoretical sources. The role of constitutional culture as a determining factor in the process of constitutional reforms, strengthening the activities of democratic institutions, protecting human rights and forming a legal state in the era of new Uzbekistan is revealed. Also, the development prospects of this institution are highlighted based on scientific views related to foreign experience, global trends, the theory of constitutionalism, and the concepts of civil society.

**Keywords:** constitutional legal culture, constitutionalism, democratic institutions, civil society, legal consciousness, New Uzbekistan, legal reforms, social modernization.

### KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY MADANIYAT — YANGI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

*Lutfullayeva Feruza Boboqulovna – TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi  
akademik litseyning huquq fani o‘qituvchisi, Mustaqil izlanuvchi*

[flutfullayeva578@gmail.com](mailto:flutfullayeva578@gmail.com); +998998517855

**Annotatsiya:** Maqolada konstitutsiyaviy huquqiy madaniyatning zamonaviy talqini, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va davlat boshqaruvi tizimidagi ta’siri nazariy manbalar asosida tahlil qilingan. Yangi O‘zbekiston davrida konstitutsiyaviy islohotlar, demokratik institutlar faoliyatini kuchaytirish, inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy davlatni shakllantirish jarayonida konstitutsiyaviy madaniyatning determinativ omil sifatidagi roli ochib berilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba, global



tendensiyalar, konstitutsionalizm nazariyasi, fuqarolik jamiyati konsepsiyalari bilan bog‘liq ilmiy qarashlar asosida mazkur institutning rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiyaviy huquqiy madaniyat, konstitutsionalizm, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, Yangi O‘zbekiston, huquqiy islohotlar, ijtimoiy modernizatsiya.

Konstitutsiya har bir demokratik davlatning siyosiy-huquqiy poydevorini tashkil qiladi. Ammo bu hujjat faqat qabul qilish bilan emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan uning ruhini chuqur anglash, undagi normalarni amalda qo‘llash orqali o‘z haqiqiy kuchini namoyon eta oladi. Shu jihatdan, konstitutsiyaviy huquqiy madaniyat tushunchasi zamonaviy huquqiy taraqqiyotning markazida turadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston tub modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasining asosiy g‘oyalaridan biri — inson qadri, adolat va qonun ustuvorligini hayotning barcha sohalarida qaror toptirishdir. Bu vazifalarning barchasi konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyatni yuksaltirish bilan bevosita bog‘liq. Huquqiy ong, huquqiy tafakkur va huquqqa hurmat kuchli bo‘lgan jamiyatgina yangilanayotgan davlat taraqqiyoti uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratadi.

Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli konstitutsiyaviy islohotlar, xususan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jamiyatda konstitutsiyaviy qadriyatlarni mustahkamlashning amaliy ifodasi bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar aholining huquqiy savodxonligini oshirish, konstitutsiyaviy ongni yuksaltirish va demokratik qadriyatlarni chuqur singdirishni taqozo etmoqda.

Konstitutsiyaviy huquqiy madaniyat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u jamiyatning huquqqa nisbatan ongli munosabati, konstitutsiyaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur anglash, konstitutsiyaviy qadriyatlarga hurmat ko‘rsatishdan iborat. Huquqiy madaniyatni umumiy ijtimoiy madaniyatning tarkibiy



qismi sifatida baholash mumkin. Ammo konstitutsiyaviy madaniyat odatiy huquqiy bilimdan ko‘ra chuqurroq mazmunga ega bo‘lib, u jamiyatning siyosiy-huquqiy ongini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Huquqiy madaniyatning shakllanishida shaxsning siyosiy-huquqiy bilim olish darajasi, jamiyatda huquq ustuvorligi tamoyillarining qay darajada amal qilishi, huquqiy ta‘lim-tarbiya sifatining yuksakligi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, konstitutsiyaviy madaniyat darajasi fuqarolarning o‘z huquq va burchlarini bilishi, ularni ongli ravishda bajarishi, davlatning tuzilishi va boshqaruv mexanizmlarining mohiyatini anglash darajasi bilan belgilanadi.

Konstitutsiyaviy huquqiy madaniyatning yana bir muhim jihati — bu konstitutsiyaviy qadriyatlarning shaxs ongiga singishi va kundalik hayotda amaliy ko‘rinish kasb etishidir. Boshqacha aytganda, shaxs nafaqat Konstitutsiyada belgilangan normalarni bilishi, balki ularni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilishi, o‘z xatti-harakatlarini ushbu qadriyatlar asosida qurishi ham lozim.

Yangi O‘zbekiston — bu shunchaki siyosiy shior emas, balki mamlakatni chuqur demokratlashtirishga qaratilgan keng qamrovli strategik yo‘nalishdir. Ushbu modelning markazida **inson qadri** turadi. Inson qadrini ulug‘lash esa, avvalo, uning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, konstitutsiyaviy kafolatlarning real hayotda ishlashi bilan uzviy bog‘liqdir.

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy asosini yaratdi. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar mamlakatda demokratik institutlarni mustahkamlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarini kengaytirish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning konstitutsiyaviy ongini oshirishga xizmat qiladigan ko‘plab normalarni o‘z ichiga oldi.



Konstitutsiyaning yangi tahririda inson huquqlari masalalariga alohida e'tibor qaratilgani, davlatning jamiyat oldidagi mas'uliyati kuchaytirilgani, ijtimoiy davlat tamoyillarining mustahkamlanganligi konstitutsiyaviy madaniyatni yuksaltirishni yanada dolzarb vazifaga aylantirdi. Chunki bunday huquqiy o'zgarishlar jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan to'g'ri angatlanmas ekan, Konstitutsiyaning amaliy kuchi to'liq namoyon bo'la olmaydi.

Huquqiy madaniyat yuksak bo'lgan jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyili mustahkam qaror topadi. Konstitutsiyaviy madaniyat esa bu jarayonning bosh mezoni sifatida xizmat qiladi. Bunday jamiyatda fuqarolar o'z huquqlarini biladi, davlat organlarining faoliyatini baholashga qodir bo'ladi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz bo'lib, adolatga bo'lgan talab kuchli bo'ladi.

Konstitutsiyaviy ongning yuksalishi fuqarolarning **siyosiy faolligini** oshiradi. Bugungi global informatsion muhitda fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi demokratik rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda jamoatchilik muhokamalari, ochiq eshituvlar, jamoatchilik nazorati kabi institutlarning rivojlanishi aynan konstitutsiyaviy madaniyatning amaliy ifodasidir.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda **ta'lim tizimi** asosiy rol o'ynaydi. Maktabdan boshlab Konstitutsiya asoslarini chuqur o'rgatish, yoshlarni huquqiy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish zamonaviy fuqarolik jamiyati talabidir. Oliy ta'lim muassasalarida huquqshunoslik fanlarining sifatli o'qitilishi, yoshlarning huquqiy tafakkurini shakllantirish, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish konstitutsiyaviy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, **ommaviy axborot vositalari** va **internet makonining** konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi huquqiy targ'ibotning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda.



Konstitutsiyaviy huquqiy madaniyat — Yangi O‘zbekistonni barpo etishning tayanch omili bo‘lib, uning rivoji fuqarolarning siyosiy ongini kuchaytiradi, jamiyatning demokratik rivojlanishini ta‘minlaydi, qonun ustuvorligini mustahkamlaydi. Konstitutsiyaning yangi tahriri fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, konstitutsiyaviy qadriyatlarni chuqur singdirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Endilikda asosiy vazifa — ushbu qadriyatlarning hayotga to‘liq joriy etilishini ta‘minlashdir.

Konstitutsiyaviy huquqiy madaniyat Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun strategik omil bo‘lib, jamiyatning huquqiy ongini yuksaltirish, inson huquqlarini ta‘minlash, adolat ustuvorligini qaror toptirish va davlat boshqaruvidagi shaffoflikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston islohotlarining mazmuni shundan dalolat beradiki, konstitutsiyaviy madaniyat nafaqat huquqiy tushuncha, balki ijtimoiy ongning yangi bosqichi — **fuqarolik mas‘uliyati va davlatga daxldorlik hissining shakllanishidir.**

Shu bois konstitutsiyaviy madaniyatni oshirish davlat siyosatining uzluksiz, izchil yo‘nalishi sifatida davom ettirilishi dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri).
2. A.Saidov. “Yangi Konstitutsiyasi” Darslik-xrestomatiya. – Toshkent, 2025.
3. Qosimov B., Xudoyberdiyev A. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Abdullayev A. Konstitutsiyaviy huquq va islohotlar. – Toshkent, 2021.
5. BMT: Human Rights Education – UN Declaration, 2011.
6. OECD: Open Government and Civic Participation Reports, 2020.
7. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission) materiallari.
8. “Huquq”, “Adolat”, “Demokratiya va huquq” jurnallarining maxsus sonlari.



## TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	<b>THE HISTORY OF QUVA IN HISTORICAL SOURCES AND ARCHAEOLOGICAL RESEARCH</b> Shaxribonu Yo‘ldashboyeva	3-8
2.	<b>THE ROLE OF MUSEUM EXHIBITS IN COVERING THE HISTORY OF THE CITY OF SHAHRISABZ</b> Eshonqulov Dilshodbek	9-15
3.	<b>CONSTITUTIONAL LEGAL CULTURE — THE MAIN FACTOR OF THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN</b> Lutfullayeva Feruza	16-20